

This is not registered version of TotalDoc Converter

O'zingizni, o'zingizni, o'zingizni, o'zingizni xonamga keldi, ko'zimga kasaldek ko'rindi. Yuzlari bo'zday oppoq, og'riqning

zo'rligidan bazo'r harakat qilar, qaltirardi.

- Nima bo'ldi, toychoq?

- Boshim og'riyapti.

- Borib yot.

- Yo'q. Tuzukman.

- Joyingga borib yot. Hozir kiyinib, oldingga tushaman.

Men pastga tushganimda u kiyinib o'choq yonida o'tirardi. To'qqiz yashar murg'akning rangida rang yo'q edi. Peshonasiga qo'limni qo'yib, harorati borligini bil-dim.

- Kirib yot,- dedim unga.

- Kasalsan.

- Tuzukman,- dedi u.

Ko'p o'tmay doktor keldi, bolaning isitmasini o'lchadi.

- Qancha?- deb so'radim undan.

- Haddan ortiq baland... Bir yuzu ikki.

Doktor ko'rsatma berib, uch xil dori qoldirdi, Bolani tumov deb aytdi, o'tib ketadi, harorati u qadar xavotirli emas dedi. Xonamga qaytib, bolaning haro-ratini yozib qo'ydim-da, dori berilgan vaqtni belgila-dim.

- Biron narsa o'qib beraymi?

- Mayli. Agar xohlasangiz,- dedi bola.

Uning yuzi oppoq ko'zlari kirtayib ketgandi. To'shakka mixlanib xayol suradi, xolos. Men Xovard Paylning "Dengiz qaroqchilari haqida doston"idan eng qiziq hikoyani o'qib berdim, biroq uning bunga mutlaqo e'ti-borsizligi sezilib turardi.

- Qalaysan, toychoq? - deb so'radim undan.

- Hamishagidek,- deya javob berdi u.

Men uning oyoq tomoniga cho'kib, keyingi dori berish vaqtiga qadar kitob o'qidim. Uxlab qolar, deb o'ylovdim, qaydam - karavot oyog'iga tikilib, jimgina yotibdi.

- Nega uxlamayapsan? Dori ichiladigan payt o'zim uyg'otaman.

- Uxlamaganim yaxshi... Siz ketavering, dada... agar malol kelayotgan bo'lsa...

- Yo'g'-e, nima deyapsan, o'g'lim.

- Ha, anglashimcha... agar malol kelsa... yonimda turmaysiz...

Ehtimol, u alahsirayotgandir, deb o'yladim va soat o'n birda beriladigan dorisini ichirib, tashqariga chiqdim.

Bola xonasiga hech kimni kiritmayapti, deb aytishdi.

- Kirmang, kasali yuqishi mumkin,- deyishdi. Men ichkariga kirib, asta karavotga yaqinlashdim.

Uning qovog'i isitmadan pir-pir uchar, hanuz ko'zi karavot oyog'ida edi. Haroratini o'lchadim.

- Qancha?- deb so'radi u.

- Ancha tushibdi.

- Demak, najot yo'q...- deya xo'rsindi u.

- Kim shunday dedi? Harorating joyida... Qo'rqinchli joyi yo'q.

- Qo'rqayotganim yo'q,- dedi u,- lekin... O'ylaganim sari...

- O'ylama.

- Bo'lmayapti-da,- dedi u va menga qadaldi. U nimadandir qattiq siqilardi.

- Manovini suv bilan ich.

- Foydasi bormikan?

- Albatta-da, foydasi bor.

O'tirib, yana "Qaroqchilar"ni o'qiy boshladim, lekin uning quloq solmayotganini ko'rib to'xtadim.

- Men qachon o'laman, ota?- deb so'radi u.

- Nima?!

- Men qachon o'laman?

- Sen... O'lmaysan... Nima bo'ldi o'zi senga?

- Mengami? Uning: "Haddan ortiq baland", deganini eshitdim...

- Odamlar qirq daraja isitmaga chidaydi-ku. Ahmoqona xayollarni qo'y.

- Men bilaman o'lishimni, Farangistondaligimiz-da maktabdosh bolalar menga qirq to'rt daraja harorat bilan yasholmaysan, deb aytishgan. Meniki - bir yuzu ikki.

U tun bo'yi, hatto ertalabki soat to'qqizgacha o'zining o'limini kutib yotgan ekan.

- Ay, toychog'im-a,- dedim men.- Sen o'lmaysan. Axir o'lchagichlar har xil bo'ladi-ku. Xuddi milya bilan kilometrdek. U o'lchagichda o'ttiz yetti daraja binoyi harorat hisoblanadi, bunda esa to'qson sakkiz daraja.

- Rostdan-a?- dedi u hayratlanib.

- Haqqast rost. O'ylab ko'r, mashinada o'n yetti milya yursak, qancha kilometr bo'ladi?

- Ha...

U bo'lak karavot oyog'iga tikilib xo'rsinmay qo'ydi. Yuziga ham rang kirgandek bo'ldi. Keyingi kuni esa arzimmas narsani ko'ngliga olib, xarxasha qildi...